Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

# BADIIY ADABIYOTDA TARIXIYLIK VA BADIIY TO'QIMA MASALALARI

Mohipari Oybek qizi Abduolimova*
*Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi ( Phd)*
✉ abduolimovamohipari@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Badiiy asarlarda tarixiylik o'tmish voqeliklarini haqqoniy va badiiy jihatdan mukammal aks ettirishga xizmat qiladi. Tarixiylik orqali kitobxon nafaqat tarixiy bilimga ega bo'ladi, balki o'tmishning ma'naviy-axloqiy saboqlarini ham anglaydi. Tarixiy roman yaratishda ijodkorning badiiy asarning mavzuiy rang-barangligiga e'tibor qaratishi uning badiiy qiymatini yanada oshiradi. O'tgan davrning ko'zga ko'ringan adabiyotshunos olimlari tarixiy romanning paydo bo'lishini innovatsion, o'ziga xos hodisa bilan bog'lashadi. Tarixiy badiiy asarlar, odatda, o'ziga xos uslubda o'sha tarixiy davr taqazo etgan tasvir voqealarida yoziladi. Tarixiy roman muallifining tarix bilan bog'langanligi uning uslubida aniqlik, fantaziyaga ortiqcha erk bermaslik, romantik parvozdan chekinish xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Jahon adabiyotshunosligi tamaddunida tarixiy roman poetikasi, badiiy asar syujeti va kompozitsiyasi, mavzu va g'oya hamohangligi, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima mutanosibligi, badiiy asar tili kabi masalalar tarixiy roman yaratishning asosiy shartlari deb qaraladi.

**Kalit so'zlar**

tarixiylik, tarixiy roman, romanlarning kelib chiqish davrlari, haqiqat, to'qima, badiiy to'qima, janr, asar tili.

DOI: 10.5281/zenodo.21743765

## KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, o'tmish hayotimiz, adabiyotimiz va tarixiy asarlarimizni o'rganish, tadqiq etishga to'g'ri, adolatli yondashish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak madaniyati, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlari sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o'z navbatida bu falsafiy- axloqiy ta'limotlar xalqimiz daxrisidan bahra olib boyib bormoqda. Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg'un holda Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahoviddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlari bilan uyg'un holda shakllanishi lozim deya ta'kidlagan edi yurtboshimiz. Bu dohiyona fikrlar o'tmish milliy qadriyatlarimizning bugungi davr, zamon, yuksalish, mustaqillik mezoni bilan tadqiq etish vazifasini oldimizga qo'ydi. Madaniyatimiz va manaviyatimiz tarixida o'tmishning har bir davri o'zining sermahsulligi bilan alohida ajralib turadi. Xalqimiz insoniyatga tarixan beqiyos ilm va adabiyot daholarini, olim-u ulamolarni yetkazib bergan. O'zbek adabiyotida xalqimiz o'tmishini, adabiyotini, madaniyatini, sa'atini, me'morchiligini aks ettiruvchi qator tarixiy mavzudagi badiiy asarlar yaratildi. "Navoiy" (Oybek), "O'tkan kunlar" (A.Qodiriy), "Me'mor" (Mirmuhsin), "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo"(O.Yoqubov), "Avlodlar dovoni. Humoyun va Akbar", "Yulduzli tunlar. Bobur ", "Ona lochin vidosi"(P.Qodirov), "Sarbadorlar", "Ulug' saltanat"(Muhammad Ali),"Samarqand hayoli"(X.Davron), "Imom al- Buxoriy" (Dushan Fayziy Zarafshoniy), "Qalb qasrining sultoni Amir Temur", "Sohibqiron so'zlaydi"(Nurali Qobil) romanlari shular jumlasidandir. Bu asarlar tarixiy mavzuni yoritishda roman janrining imkoniyati naqadar keng ekanligidan dalolat beradi. Tarixni jonlantirish, o'tmishni bugungi kitobxonga badiiy jilolarini to'liq saqlagan holda yetkazish yozuvchidan nihoyatda katta mas'uliyat va mashaqqatli

mehnatni, mahoratni talab qiladiki buning uchun yozuvchi tarixiy voqeani, faktni obdon o‘rganish, davrning ijtimoiy- siyosiy ahvolini tahlil qila bilish, xolisona baholash, davr tili haqida mukammal tasavvur va bilimga ega bo‘lish (fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialekti va boshqalar), tarixiy shaxslar, joy nomlari sanalarni aynan keltirish muhimdir. Bu talablar tarixiy mavzudagi badiiy asarni yaratishda e’tibor qaratiladigan sohalar xolos. Asosiy va eng muhim jihat esa tarixiy faktni haqqoniy, ishonchli va badiiy ifodalashdir. Badiiylikni yuzaga keltiruvchi til birliklaridan, tasviriy ifoda vositalaridan foydalana bilish, real voqelikni kitobxonga san’atkorona va estetik zavq beradigan darajada tasvirlab berishdir. Tarixiy badiiy asar o‘tmishning turli davrlariga oid bo‘lishi mumkin. Masalan, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari XIV-XV asrlar tarixini, ayniqsa Amir Temurning tug‘ilishidan boshlab uning harbiy yurishlari, davlatni boshqarish va 1405- yildagi vafotiga qadar voqealar bayon etilgan. “Bobur” romani esa XV asrning oxirgi choragi va XVI asrning birinchi yarmi voqealarini o‘z ichiga oladi. Bu davr xalqimiz madaniyati tarixida alohida davr sanaladi. Xuroson va Movarounnahrda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy homiyliklarida o‘nlab shoirlar, adiblar, tarixchi va musiqashunoslar yetishib chiqdi va sermahsul ijod qildi. Bu davrda yaratilgan asarlar yaqin o‘tmishda va hozirda yaratilayotgan tarixiy asarlar uchun poydevor vazifasini o‘tamoqda. Tarixiy roman tilida davr tarixi, urf-odati, madaniyati, san’ati, dunyoviy qarashlari, xalq tili elementlari, adabiy tilning o‘sha davrdagi holati namoyon bo‘ladi. Har bir davr tilining o‘z nozikliklari, xususiyatlari, tasvir ifoda usuli bo‘ladi. Tarixiy faktni badiiy estetik jihatdan ifodalash uchun yozuvchidan katta mahorat talab qilinqadi. Tarixiy roman tilini o‘rganishning muhim tomonlaridan biri davr tili birliklarining ifodalanishidagi haqiqiyligi hamda haqqoniyligini aniqlashdir. Chunki tilda davr kaloriti, kishilar ruhiy holati butun borligi bilan aks etadi. Tarixiy mavzuda yaratilgan badiiy asarlar tili va uslubini o‘rganishda ularni bir qolipga solib bo‘lmaydi, albatta. Chunki ularning har biri turli davrda yaratilgan voqea-hodisalarni aks ettiradi. Masalan, “Sohibqiron so‘zlaydi” romani XIV- XV asrlarni, “Navoiy” romani XV asr voqea- hodisalarni, “O‘tkan kunlar” XIX asrni ifodalaydi. Bu davrlar esa tili, madaniyati, turmush- tarzi bilan bir- biridan keskin farq qiladi. Shuning uchun har bir tarixiy badiiy asarni tadqiq etishda shu mulohazalarni hisobga olgan holda yondashish zarur.

Tarixiylik badiiy asarning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlar va muhitning muayyan tarixiy davrga mos holda aks ettirilishini anglatadi. Tarixiylik tamoyili yozuvchidan o‘tmish hayotini chuqur o‘rganishni, tarixiy manbalarga tayanishni hamda davr ruhini badiiy jihatdan ishonarli tasvirlashni talab etadi. Badiiy asarda tarixiylik faqat tarixiy faktlarni bayon qilish bilan cheklanmaydi. Yozuvchi tarixiy voqealarni badiiy qayta ishlaydi, ularga o‘z estetik qarashlari va ijodiy talqinini singdiradi. Shu sababli tarixiy asarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘zaro uyg‘unlashadi. Tarixiy faktlar asarning asosini tashkil etsa, badiiy to‘qima qahramonlarning xarakterini ochish, voqealarning ta’sirchanligini kuchaytirish va asarning g‘oyaviy mazmunini yoritishga xizmat qiladi. Tarixiylikning asosiy ko‘rinishlari quyidagilardan iborat:

-Tarixiy davrning haqqoniy tasviri – ijtimoiy-siyosiy muhit, urf-odatlar, turmush tarzi va madaniyatning ishonarli aks ettirilishi.

-Tarixiy shaxslar obrazi – real tarixiy shaxslarning badiiy talqinda gavdalantirilishi.

-Tarixiy voqealarning aks etishi – muhim tarixiy hodisalarning syujet asosiga aylanishi.

-Davr ruhining ifodalanishi – zamon kishilarining dunyoqarashi, qadriyatlari va maqsadlarining ochib berilishi.

Jahon adabiyotida Valter Skott tarixiy roman janrining asoschisi sifatida e’tirof etiladi. Uning “Ayvengo”, “Kventin Dorvard” kabi asarlarida tarixiylik va badiiylik uyg‘unlashgan. O‘zbek adabiyotida esa Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlari tarixiylik tamoyilining yorqin namunalaridir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarda tarixiylik o‘tmish voqeliklarini haqqoniy va badiiy jihatdan mukammal aks ettirishga xizmat qiladi. Tarixiylik orqali kitobxon nafaqat tarixiy bilimga ega bo‘ladi, balki o‘tmishning ma’naviy-axloqiy saboqlarini ham anglaydi. “tarixning eng muhim vazifasi- o‘tgan zamon odamlarning hayotini jonlantirishdir” deya ta’kidlagan edi tarixiy roman asoschisi hisoblangan Valter Skott. Bu fikr tarixiy roman oldidagi asosiy vazifani – davr ruhini tiklash zarurligini aytadi. . Tarixiy roman o‘tmishda bo‘lgan voqealar fonida yuzaga kelgan janr hisoblanadi. “Tarixiy roman- bu o‘tmish voqealarini badiiy tasvir-

lash orqali tarixiy haqiqatni estetik shaklda qayta yaratishdir." [1]deb aytib o‘tgan edi taniqli ijodkor G.Lukacs. Darhaqiqat, tarixiy roman muallifidan nafaqat ijodkorlik balki, tarix bilan hamnafaslikni talab etadi. "Tarixiy roman tarixiy haqiqatni to‘liq takrorlamaydi, balki uni badiiy haqiqat darajasiga ko‘taradi". [2]Zero, ushbu janrda ijod qilish jarayonida yozuvchi ham san'atkor, tarixchi, geograf, faylasuf va analitik bilimlar talab etadi. Ijodkor asarda o‘tmish voqealarini qay darajada haqiqatga yaqin bo‘lishi, obrazlarni tasvirlash, badiiy to‘qimani qanchalik haqiqatga mos ekanligi, shuningdek, asar poetikasida badiiy psixologizm kabi masalalarga bo‘lgan e'tibori ijodkorni professionalligidan dalolat beradi. Tarixiy romanlarda tarixiylik tarixiy faktlarni takrorlash emas, balki tarixiy davr mohiyatini badiiy obrazlar vositasida ochib berishdir. Tarixiy roman o‘quvchiga tarixni his qilish, davr ruhini anglash va tarixiy tajribadan saboq chiqarish imkonini yaratadi. Shu jihatdan Valter Skott, Abdulla Qodiriy, Pirimqul Qodirov kabi adiblar asarlari tarixiylik va badiiylik uyg‘unligining yorqin namunalaridir. Professor S.Mirvaliyev ta’kidlaganidek, "1905- 1915- yillarda milliy adabiyotimiz nafaqat mazmuni, g‘oya, mavzu jihatdan yangilanib qolmay, balki shakl, uslub borasida ham yangijanrlarning ajralishi va turlarga bo‘linishi davriga ham ko‘tarildi. Zero, Hamza, Mirmuhsin, Fikriylar adabiyotimiz tarixida birinchi bor "ro‘mon" degan atama, tushuncha, qolaversa, janrning paydo bo‘lishining embrional davrini boshlab bergan bo‘lsalar, Abdulla Qodiriy romanlari bu boradagi amaliy jarayon va izlanishlarning yagona va mukammal mevasi sifatida- birinchi yetuk o‘zbek realistik milliy romanining tug‘ilishiga olib keldi." Olimning bu qarashlarida tarixiy romanning emas, balki o‘zbek romanchiligining shakllanishiga e’tibor qaratilgan.[3] Buyuk yozuvchi adibimiz A.Qodiriy esa bu holatni shunday izohlaydi: "Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlikdir."[4] Zero, yozuvchining tarixiy roman yozishdan maqsadi faqat tarixiy faktni yoritib berish emas, balki tarixiy o‘zgarishlarning xalq hayotida qanday namoyon bo‘lishini, uni kelajak avlodga qanday yetkazib berishni va bu orqali ezgu amal qilish vazifasini ham o‘z zimmasiga olishi va buni qalban his qila olishi zarur bo‘ladi. Qodiriy nazarida tarixga murojaat qilish o‘tmishni takrorlash emas, balki undan saboq chiqarish va milliy o‘zlikni anglash vositasidir. Shu bois uning romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unlashib, tarixiylikning mukammal ifodasini topgan. Bundan tashqari qator adiblar roman yoki tarixiy roman haqida fikr yuritar ekan, ular bu borada o‘zlarining shaxsiy qarashlarini ilgari suradilar. Jumladan, Oybek tarixiy roman talablaridan biri haqida to‘xtalarkan, "Men, yozuvchi qaysi bir tarixiy davrga murojaat qilmasin, mabodo u davrning g‘ayritabiiy yoki hattoki g‘alati ko‘ringan barcha xususiyatlarning orasidan o‘ziga tanish bo‘lgan his- tuyg‘ular va fikrlar izlasa, pirovardida mutlaqo xato qilmaydi, deb o‘ylayman. Albatta bu his-tuyg‘u va fikrlarni o‘tmishdan izlash lozim, sun’iy ravishda kiritish kerak emas. Asosiy mashaqqat ham xuddi ana shundadir. Begona davrni bilish, ya’ni uni bizning davrimizdan nimasi bilan ajralib turishini tasavvur qilishning o‘zigina yetmaydi. Uni tushunmoq, ya’ni uni bizning davrimiz bilan bog‘lab turgan narsalarni ko‘rmoq lozim."[5] Bundan ayon bo‘ladiki, yozuvchi nafaqat tarixiy hodisalarni o‘rganishi yoki ko‘rib chiqishi balki uni qalban his qilishi va tushunishi va hattoki uning tasir darajasini oldindan ko‘ra bilmog‘i lozim. M.Qo‘shjonovning uqtirishicha, "Haqiqiy roman xalqning o‘tmishi yoxud bugungi kuniga tegishli muhim va dolzarb voqealarni aks ettiradi. Hayotning taraqqiyot bosqichlarini, murakkab masalalarini tahlil qiladi. Demak, roman tarixi xalq tarixidir..."[6] Tarixiy romanlar taraqqiyotiga nazar tashlasak, uning o‘ziga xos talqini bilan birgalikda, tarixiy jarayonlarni aks ettirish epik planda namoyon bo‘lishini kuzatamiz. Shuning uchun tarixiy roman hayot haqiqatini, tarixiy davr voqeligini atroflicha qamrab oladi va tasvir uchun asos bo‘ladi. A.Kattabekov doktorlik dissertatsiyasida yangi davr tarixiy romaniga xos asosiy xususiyatlar sifatida moziyning e’tiborga loyiq davrini, millat va xalq o‘tmishida alohida o‘rin tutgan shaxslar faoliyatini tanlab olish; tarixiy romanda shaxs va tarixiy jarayonning aniq g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasining mavjudligi; tasvirlanayotgan voqea va shaxslarning teran badiiy talqini asosida tarix haqiqatining badiiy haqiqatga o‘sib chiqishi zarurligi qayd etilgan. Adabiyotshunos S. Mirzayevning nazariy qarashlari ham bu fikrlarni ma’lum darajada to‘ldiradi: "Agarda 20-yillarda faqat bitta yozuvchi — A.Qodiriy romanchilik sohasida ijod qilgan bo‘lsa, 30-yillarda bu janrda S.Ayniy, Cho‘lpon, Oybek, A.Qahhor, H.Shams

[1]Lukacs G. The historical novel. London: Merlin Press, 1962.
[2]Lukacs G. The historical novel. London: Merlin Press, 1962.
[3]Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy kashfiyoti- Toshkent; Mashhur Press,- 2018.
[4]Qodiriy A. O’tkan kunlar.-Toshkent: G’afur G’ulom,1965
[5]Oybek. Mukammal asarlar to’plami. O’n to’qqiz tomlik. O’n to’qqizinchi tom,- Toshkent; Fan, 1979,- B.292.
[6]Qo’shjonov M. Qayta qurish va o’zbek romani// Sharq yulduzi. – 1988-y. 1-son.-167-b.

kabi iste'dodli adiblar qalam tebratdilar. Bu davrda o‘zbek romanchiligida boshqa xalqlar adabiyotida bo‘lgani singari tarixiy o‘tmish mavzusi keng ishlandi. “Qullar” (S.Ayniy), “Kecha va Kunduz” (Cho‘lpon), “Qutlug‘ qon” (Oybek) kabi mashhur romanlarimiz xuddi shu davrning mahsulidir. Ularda xalq va mamlakat tarixining turli bosqichlaridagi hayotining xilma-xil manzaralari realistik bo‘yoqlarda aks ettirilgan.”[7] To‘g‘ri, tarixiy romanlarda tarixiy davr va tarixiy shaxslarning turli – tuman qirralari bilan bir qatorda, o‘tmish voqeligi aks ettiriladi. Ammo Cho‘lponnning “Kecha va Kunduz” romanini tarixiy roman sifatida baholash biroz munozarali holat hisoblanadi. Chunki unda aniq yuz bergan yoki haqiqatda mavjud bo‘lgan qahramonlarni uchratmaymiz, lekin falsafiy jihatdan mushohada qilib ko‘rilsa har bir kechagi kunimiz ham biz uchun tarix, lekin romanning o‘ziga xos qonuniyatlari jihatdan tahliliy yondashsak, zamonaviy romanlar sirasiga kiritish lozim bo‘ladi. Shu o‘rinda, O‘rta Osiyo va o‘zbek romanlarini qiyosiy o‘rgangan adabiyotshunos olim G‘.Murodov mulohazalarini keltirish lozim topildi: “V.Skott romanidagi to‘qima qahramon va siyosiy arbob bir shaxsga birlashtirildi (Alfred de Vini), badiiy to‘qima kengligini ta’minlash uchun uncha ma’lum bo‘lmagan tarixiy shaxs va tarixiy voqea tanlab olindi (Onore de Balzak, “Shuanlar”) va nihoyat, tarixiy romanning butun badiiy qurilishi ayrim fakt, ma’lumotlarni hisobga olmaganda boshdan- oyoq to‘qima vositasida hosil qillindi( Viktor Gyugo, “Parij Bibi Maryam ibodatxonasi”). Yoki tarixiy shaxslarva tarixiy hodisalar romanning asosiy tizmasidan “chet”da, qahramon va personajlarning nutqi, suhbati, xotiralari orqali shakllantiriladi.”[8] Darhaqiqat Yevropa tarixiy romanchiligiga nazar tashlasak , tarixiy romanga buyuk tarixiy shaxslar asos qilib olinsa- da , aslida ularning obrazini yaratishda badiiy to‘qima yetakchilik qilishi yaqqol anglashiladi. Shuning uchun Valter Skott romanlarining asosiy qismiga tarixiy roman sifatida tahliliy yondashish yetakchilik qiladi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov qayd etganidek: “Tarixiy romanda ilmiy haqiqat bilan badiiy haqiqatning munosabati g‘oyat nozik va munozarali masala. Adabiyot tarixida shunday asarlar borki, ular ilmiy jihatdan asoslangan tarixiy faktlarga to‘la mos keladigan hujjatlarga tayanib yozilgan… Ayni zamonda shunday tarixiy asarlar borki, ularda umuman hayotiy haqiqatga tayanilgani holda yozuvchi hayoloti- fantaziyasi orqali tarixiy faktni qayta idrok etish muhim o‘rin tutadi, tarixiy hodisalar , shaxslar muallif badiiy niyati asosida o‘zgacha talqin etiladi. Adabiyot tarixida bunday misollar ko‘p. Navoiy dostonidagi Iskandar tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiydan keskin farq qiladi. Mariya Styuartni Shiller o‘zgacha, Valter Skott boshqacha, Stefan Sveyg esa o‘zgacha talqin etadi… Shaxsan men tarixiy asarda yozuvchi hayoloti- fantaziyasiga erk berish , “tarixchi olim ishi tugagan joyda yozuvchi ishi boshlanadi” degan qarash tarafdoriman”.[9] Aynan xuddi shu mazmundagi fikrlarni H.G‘ulom, Shuhrat, H.Begmatov romanlarida yozuvchilarning tarixiy shaxslarga yodashuvlarida nechog‘lik to‘g‘ri ekanini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bundan shu narsa xulosa qilinadiki, tarixni qanday yoritish, undagi faktlar va tarixiy shaxslarni qay holda berish bu yozuvchining badiiy mahorati va tasavvuriga bog‘liq, lekin tarixni boricha bayon etish va uni noto‘g‘ri faktlardan xoli holda bugungi yosh avlodga yetkazish yozuvchilarning muhim va sharafli burchi deb qaralsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu fikrlarimiz misoli sifatida Herbert Butterfieldning ”Tarix va insonning o‘tmishga munosabati” (History and Man’s Attitude to the Past, 1961) asari turli davrdagi sivilizatsiyalarning tarixni qanday idrok etishini o‘rganadi. Muallif chinakam obyetiv tarixiy tadqiqot va insoniyat taraqqiyoti uchun o‘tmishni bugungi kunning axloqiy mezonlaridan xoli tarzda, ya'ni ”o‘tmishni o‘tmish uchun” o‘rganish zarurligini ta'kidlaydi.

Butterfieldning insoniyat va tarix o‘rtasidagi munosabatlarga oid qarashlari quyidagi asosiy va ishonchli prinsiplarga tayanadi:

**“Viglarcha talqin (Whig Fallacy) tanqidi:** U tarixni shunchaki bugungi kungi yutuqlarga olib kelgan to‘g‘ri chiziqli va muqarrar taraqqiyot yo‘li deb hisoblashga qarshi chiqqan. Bunday yondashuv o‘tmishdagi shaxslarga bugungi kun qadriyatlari bilan baho bergani uchun tarixni buzib ko‘rsatadi. Va bu turdagi asarlar kitobxonni asardan zeriktiradi.

**O‘tmish – begona hudud:** Tarixchi har bir davrni uning o‘ziga xos kontekstida tushunishi shart. Davrlar o‘rtasidagi keskin farqlar tufayli, tarixiy shaxslarga zamonaviy axloqiy mezonlar bilan hukm chiqarish ilmiy mas'uliyatsizlikdir. Zero, bu ham badiiy, ham tarixiy tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi yaqqol namoyon

[7]Mirzayev S.Hayot va adabiyot ( ilmiy asarlar, publisistik maqolalar). – Toshkent; Sharq, 2005.- 129-b.
[8]Murodov G’. Tarixiy roman: genezisi va keyingi taraqqiyoti.- Toshkent; Fan, 2005.- 11-12- b.
[9]Yoqubov O. So’z. Birinchi kitob. – Toshkent: SHARQ nashriyoti – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – 57-58- b.

bo‘luvchi fakt.

**Tarix – axloqiy maktab:** Insoniyat tarixining murakkabligini o‘rganish odamda hamdardlik (empatiya) va kamtarlik hissini uyg‘otadi hamda insoniy kibrning oldini oladi.”[10] Muallif bu mezonlarni o‘ziga asos qilib chinakam obyetiv tarixiy tadqiqotlarni olib bordi va bu tadqiqotlar yosh va umidli yozuvchilar uchun dasturulamal vazifasini o‘taydi. Yana bir fidoyi yozuvchilardan biri Ernest E. Leisy o‘zining “Amerika tarixiy romani” (“The American historical novel”) kitobida tarixiy adabiyotning tabiati, vazifasi va uning mohiyati haqida muhim fikrlar bildirgan: “tarixiy romanning asosiy vazifasi – quruq faktlarga jon bag‘ishlash va o‘tmishni kitobxon ko‘z o‘ngida qayta jonlantirishdir”, zero, Leisy yozuvchi shunchaki tarixiy xronologiyani ko‘chirib qo‘ymasligi, balki o‘sha davr odamlarining his-tuyg‘ularini va yashash tarzini ko‘rstib bera olishi kerak deb hisoblagan;“eng yaxshi tarixiy roman – bu tarixiy voqealar fonida inson tabiatini to‘g‘ri tasvirlay oladigan asardir. Bu yerda badiiy to‘qima tarixiy haqiqatni buzmasligi, aksincha, uni to‘ldirishi lozim.”[11] Darhaqiqat, tarixni buzib yoki o‘zgartirib emas, balki qanday bo‘lsa shundayligicha yosh avlodga yetkazish va undan to‘g‘ri xulosalar chiqarish bugungi kun asosiy va muhim vazifalaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Lukacs G. The historical novel. London: Merlin Press, 1962.
2. Lukacs G. The historical novel. London: Merlin Press, 1962.
3. Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy kashfiyoti- Toshkent; Mashhur Press, - 2018.
4. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. -Toshkent: G‘afur G‘ulom,1965
5. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n to‘qqiz tomlik. O‘n to‘qqizinchi tom, - Toshkent; Fan, 1979, - B.292.
6.Qo‘shjonov M. Qayta qurish va o‘zbek romani// Sharq yulduzi. – 1988-y. 1-son. -167-b.
7. Mirzayev S. Hayot va adabiyot (ilmiy asarlar, publisistik maqolalar). – Toshkent; Sharq, 2005.- 129-b.
8.Murodov G‘. Tarixiy roman: genezisi va keyingi taraqqiyoti. - Toshkent; Fan, 2005.- 11-12- b.
9. Yoqubov O. So‘z. Birinchi kitob. – Toshkent: SHARQ nashriyoti – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – 57-58- b.
10. Butterfield H. History and Man’s Attitude to the Past; Their Role in the Story of Civilization. – I..., 1961.
11. Leisy E. The American historical novel. - Norman, 1950.

[10]Butterfield H. History and Man’s Attitude to the Past; Their Role in the Story of Civilization. – I..., 1961.
[11]Leisy E. The American historical novel.- Norman, 1950.